

## **TA'LIM TURLARIDA CHIZMACHILIK FANINING O'QITILISH HOLATI**

*Nizmiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*  
*“Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi”*  
*yo'nalishi magistranti Qodirova Sevdora*

### **Anotatsiya**

Ushbu maqolada mamlakatimiz ta'lim tizimida yangilanayotgan islohatlar, yurtboshimiz rahbarligi asosida ilm-fan rivoji uchun qo'yilayotgan tashabbuslar haqida gap boradi. Bundan tashqari, ta'lim tizimimizda chizmachilik fanini o'rni va uni o'qitilish holati yoritiladi. Prezidentimizni muhandislik va chizmachilik sohalariga e'tibor qaratmoqda va ta'limni rivojlantirish uchun bir qancha ishlarni amalga oshirmoqda. Ushbu ishlar haqida batafsil maqolada yoritilgan.

### **Аннотация**

В данной статье рассказывается о реформах, проводимых в системе образования нашей страны, а также о инициативах, предпринимаемых под руководством нашего лидера для развития науки. Кроме того, освещается роль черчения в образовательной системе и текущее состояние его преподавания. Президент уделяет внимание инженерному делу и черчению, проводя ряд мероприятий для развития образования. Обо всех этих мерах подробно рассказывается в статье.

### **Abstrac**

This article discusses the ongoing reforms in our country's education system and the initiatives undertaken under the leadership of our head of state to promote scientific development. Additionally, it highlights the role of technical drawing in the education system and its current state of teaching. Our President is focusing on engineering and technical drawing fields and is implementing various measures to improve education. These efforts are covered in detail in the article.

### **Kirish**

Bugungi XXI asr zamonaviy texnologiya asri bo'lishiga qaramasdan, hozirgi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham buni isbotini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish yo'nalishida tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish,

madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, yoshlarni iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ilm-fan har qanday davlatning buguni va kelajagidir. Hozirgi kunda mamalakatimiz taraqqiyoti uchun yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev ham ilm fan sohasiga katta e'tibor qaratmoqda. Buni isbotini 2018-2021-yillarda ilmiy innovatsion faoliyat sohasida 2 ta qonun, prezidentning 5 ta farmoni va 26 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 35 ta qarori va 7ta farmoyishi qabul qilinganligida ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan, aytishimiz mumkinki yurtimizda 31 mingdan ziyod shaxs ilmiy tadqiqot ishlari bilan mashg'ul, ularning 28 mingdan ziyodi oliy ma'lumotga ega. Har yili davlat budjetining ma'lum bir qismi ilm-fanga sarflanadi. O'tgan to'rt yil davomida 28 ta ilmiy tashkilot, 4 ta innovatsion texnoparklar tashkil qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097- sonli farmoni bilan tasdiqlangan ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ilm-fanni rivojlantirish yo'lidagi 19 ta muammo alohida belgilandi. Bullardan dissertatsiya himoyasi va ilmiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish muammolari, dolzarb tadqiqot mavzusini tanlash, ilmiy faoliyat bilan bog'liq jarayonda ortiqcha rasmiyatchiliklarning mavjudligi va shunga o'xshagan bir qancha muammolardan tashkil topadi.<sup>1</sup>

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytishimiz joizki, ta'limni rivojlantirish yo'lida bir qancha ishlarni amalga oshirishimiz lozim. Ta'lim sohasida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, turli rasmiyatchiliklarni oldini olish, malakali professor o'qituvchi kadrlarni yetarlicha rag'batlantirish, ta'limni rivojlantirish bo'yicha chora tadbirlarni tizimli va maqsadli qabul qilishini ta'minlashdan iboratdir. Bundan tashqari, internet va raqamli taxnologiyalar ta'limni yanada kengaytirishga imkon yaratmoqda. Albatta, ta'limni rivojlantirishda davlatning roli katta. Ta'lim sohasiga ta'luqli bir qancha strategalar va shu sohaga ta'luqli farmon va qonunlar davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilmoqda. Prezidentimizning mana shu sohani rivojlantirishga doir farmonlari va qarorlari asosan ta'lim tizimining sifatini oshirish, zamonaviy talablar asosida yangi ta'lim metodologiyalarini va yuksak malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan.

Har bir mamlakatning ta'lim tizimi uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini boshqaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlarini o'z ichiga oladi.

<sup>1</sup> <https://xabar.uz/uz/tahlil/ozbekistonda-ilm-fan-taraqqiyoti>

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun 2020-yil 19-mayda qabul qilingan bo‘lib unga muvofiq ta’lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta va o‘rta-maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keying ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim.<sup>2</sup>

Qonunga ko‘ra davlat oliy ta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ham: “Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg‘or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”<sup>3</sup> deb ta’kidlaganlar. Demak, biz ham bunday ishonchni oqlashimiz, qaysi sohada bo‘lishimizdan qat’iy nazar o‘z kasbimizni sevishimiz kerak.

Turmush tarzimizda yaratilayotgan har qanday yangiliklarning dastavval, chizmasi chiziladi. Mana shu chizma orqali yaratilayotgan yangilikning afzalliklari va kamchiliklari aniqlanadi va shu chizma orqali bajarilayotgan buyum tartibga solinib yig‘iladi. Shu maqsadda ham chizmachilik fani maktab bosqichidan boshlab o‘rgatiladi. Chizmachilik fani ta’lim sohasida muhim ahamiyatga egadir. Chunki chizmachilik fani o‘quvchilarda texnik ko‘nikmani, ijodkorlik, diqqatni jamlash va turli xil muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Aynan, chizmachilik fanida o‘quvchilarni ijodkorligini oshirishga qaratilgan bir qancha ijodiy topshiriqlar va turli xil metodik ta’minot bazasi yetarlicha. Chizmachilik fanini yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchida grafik savodxonligi, tushunish qobiliyati, chizmani o‘qish ko‘nikmalari shakllanadi. Chizmachilik fanini talaba o‘quvchilarga o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar o‘quvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantiradi va fazoviy tasavvurini oshiradi. Ummuman olganda, chizmachilik fani texnik kommunikatsiya va loyihalashni samarali amalga oshirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi.

---


<sup>2</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/24/education/>

<sup>3</sup> Karimov I A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-tom.-T: “O‘zbekiston”, 1999.

**Maktabgacha ta'lim va tarbiya turida chizmachilik fanini o'rni.** Bizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim muassasalarida chizmachilik fani fan sifatida alohida o'qitilmasada, ushbu fanning ma'lum bir elementlaridan foydalaniladi. Har qanday bog'chalarda, u hoh davlat bog'chasi bo'lsin, hoh xususiy bog'cha bo'lsin u yerda tarbiyachi pedagoglarimiz bolajonlarimizga turli xil rasmlar chizish orqali chizmachilik elementlarini o'rgatadilar. Misol uchun: bolajonlar daraxtni yashil barglarini aylana shaklida, shoxlarini to'g'ri to'rtburchak yoki trapetsiya shaklida chizishadi. Bu esa chizmachilik va geometriya fanlarini boshlang'inch nuqatada shakllanishidir. Chunki maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchi bolajonlarimiz ushbu fanni hali bilmasada, ammo mana shunday ko'nikmalari shakllanib boradi.

**Umumiy o'rta va o'rta-maxsus ta'lim turi.** O'zbekiston Respublikasining qabul qilingan ta'lim standartiga asosan chizmachilik fani maktablarda 8-9- sinflarida o'qitiladi. Bizga ma'lumki, chizmachilik fanidek hech qaysi fan o'quvchilarning tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantirmaydi. Har bir maktab o'quvchisi chizmachilik fanini o'rganar ekan, unda fazoviy tasavvur rivojlanib boradi. Bu albatta, fazoviy tafakkur orqali amalga oshadi. Bejizga chizmachilik fanini maktab dasturlaridan boshlab ta'lim tizimiga kiritilmagan. Yuqorida aytib o'tkanimizdek, chizmachilik fani o'quvchilarni texnik savodxonligini, shuningdek, ijodiy tasavvurini shakllantiradi.

**Professional ta'lim tizimi.** Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda 2020-2021 o'quv yilidan boshlab kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida Milliy malaka tizimini ishlab chiqish, yurtimizda 340 ta kasb-hunar maktabi, 147 ta kollej va 143 ta texnikum tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan edi.<sup>4</sup>



<sup>4</sup> <https://yuz.uz/uz/news/professional-talim-tizimi-va-xalqaro-andozalar>

Maktab dasturida chizmachilik fani boshlang'ich nuqtada o'qitilsa, kasb-hunar maktablarda asosan oliy o'quv yurtlarga tayyorgarlik, ya'ni chuqurlashtirib o'qitiladi. Respublikamizdagi kasb-hunar maktablari mutaxassisliklar bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlanmoqda. Chizmachilik kursining boshqa fanlar bilan aloqalari, kasb-hunar maktablari talabalarini texnikaviy tarbiyalashda va ularning kasbiy faoliyatida katta o'rin egallaydi. Shuning uchun ham kasb-hunar maktablarining ko'pchilik mutaxassisliklarida chizmachilik fani alohida fan sifatida o'quv jarayoniga kiritilgan.

**Oliy ta'lim tizimi.** O'zbekiston ta'lim tizimida chizmachilik fani muhim o'rin tutadi. Bu fan, asosan talabalarga turli sohalarda loyiha ishlab chiqish, dizayn, arxitektura va boshqa tegishli sohalarda asosiy ko'nikmalarni o'rgatadi. Chizmachilik fani ta'lim jarayonida talabalarni nafaqat texnik, balki ijodiy fikrlashga ham o'rgatadi. Bu esa ularga kelajakda loyiha ishlab chiqishga katta yordam beradi.

Oliy o'quv yurtlarida chizmachilik fanini o'qitish – bu muhandislik, arxitektura, dizayn va boshqa texnik sohalarda talabalarga asosiy chizmalar va texnik hujjatlar tayyorlashni o'rgatadi. So'ngi yillarda yurtimizning OTM larida chizmachilik sohasiga mos turli xil yangi mutaxassislik yo'nalishlari ochilmoqda.

Jumladan,

<b><i>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining quyidagi ta'lim yo'nalishlarida:</i></b>	
-60110500 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi;	-70111202–Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi;

<b><i>Toshkent arxitektura-qurilish universitetining quyidagi ta'lim yo'nalishlarida:</i></b>	
-60730100 – Arxitektura;	-60711800 – Atrof-muhit muhandisligi;
-60720600 – Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi (qurilish)	-61020300 – Materialshunoslik;

<b><i>Toshkent davlat transport universitetining quyidagi ta'lim yo'nalishlarida:</i></b>	
-60610900 – Radioelektron qurilmalar va tizimlar;	-60710400 – Energetika muhandisligi;
60710500 – Elektr muhandisligi;	-60710800 – Metrologiya va standartlashtirish;
-60711200 – Metallurgiya muhandisligi;	-60711800 – Atrof-muhit muhandisligi;

-60712300 – Mexanika muhandisligi;	-60711000 – Mexatronika va robototexnika;
------------------------------------	---

Chizmachilik fanining o‘qitishda, talabalar eng sodda geometrik shakllardan boshlab to murakkab detal yoki buyumlarni tasvirini chizish va ularni yaratilish jarayonlarini o‘rganadilar. Talabalarda grafik bilimlarni rivojlantirish murakkab jarayon hisoblanadi va bu albatta o‘quv jarayon bilan chambarchas bog‘langan. Ushbu fanni o‘qitish jarayonida barcha talabalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib dars o‘tish lozim.

***Oliy ta’limdan keyingi ta’lim.*** Oliy ta’limdan keyingi ta’lim bu mamlakatimizda malakali va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi hisoblanadi. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimi ushbu shakllarda amalga oshiriladi: *stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilik.* Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ta’lim shakllari orqali chizmachilik fani mutaxassisligi bo‘yicha ham mamlakatimizda juda ko‘plab ilmiy ishlar va doktorlik dissertatsiyasi himoya qilinmoqda.

***Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.*** Bizga ma’lumki, pedagoglar har 5 yilda bir marotaba o‘z malakalarini oshiradilar. O‘qituvchi malaka oshirish jarayonida mamlakatimizda va jahonda pedagogika, psixologiya hamda o‘quv fani bo‘yicha erishilgan yutuqlarni o‘rganadilar. Shu bilan birga, pedagog hodimlarning ilmiy salohiyatini, dars berish sifatini oshirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. Jumladan, chizmachilik fani o‘qituvchilarining ham grafik savodxonligini yanada oshirish va ta’lim berish jarayonida duch kelinayotgan bir qancha muommolar mana shunday malaka oshirish jarayonida bartaraf qilinadi. Pedagogik mahorat markazida maktab o‘qituvchilari xususan tasviriy san’at va chizmachilik fani o‘qituvchilari quyidagi modular asosida o‘qitiladi:

- Tasviriy san’at va chizmachilik fanining DTS va yangi avlod darsliklarining tahlili;
- Tasviriy san’at va chizmachilik fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar;
- Tasviriy san’at va chizmachilik darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- Tasviriy san’at va chizmachilik fanida ART pedagogikasi;
- Tasviriy san’at va chizmachilik darslarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash;
- Tasviriy san’at va chizmachilik fanida o‘quvchilarning mustaqil

ta'limini tashkil etish shakllari;

**Maktabdan tashqari ta'lim.** O'quvchi-talabalarni darsdan tashqari bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim shakli. Ushbu ta'lim turi yoshlarni intellektual, ijodiy va kasbiy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, turli to'garaklar, barkamol avlod bolalar maktablari, o'quv kurslari, onlayn ta'lim platformalari va boshqalar.

Hozirgi ilm-fan va texnologiya rivojlangan davrda yurtimizda turli xil xususiy o'quv markazlar ochilmoqda. Ayniqsa, muhandislik sohasiga ta'luqli juda ko'plab o'quv kurslari, ya'ni AutoCAD, 3D max, SolidWorks, sketchUp va BricsCAD kabi modellashtirish va muhandislik loyihalarini yaratishda qo'llaniladigan dasturlarni o'qitadigan o'quv markazlari kundan kunga ko'paymoqda.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi fikr va mulohazalardan xulosa qilib shuni aytishimiz zarurki, ta'lim tizimida chizmachilik fanini o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u o'quvchilarni fazoviy tafakkurini, muhandislik savodxonligi va texnik bilimlarini shakllantirishga yordam beradi. Biroq hozirgi vaqtda bu fan bo'yicha o'quv jarayonda ayrim muammolar duch kelmoqda, ya'ni amaliy mashg'ulotlar kamligi, texnologik vositalarning yetarlicha ta'minlanmagani va zamonaviy o'quv metodikalarining yetishmasligidir. Shu sababli chizmachilik fanini yanada samarali o'qitish uchun ilg'or pedagogik usullarni joriy etish, zamonaviy dasturiy ta'minotdan foydalangan holda o'qitish. Bu esa kelajak avlodg mutaxassis bo'lib yetishishiga muhim omil hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Karimov I A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom.-T: "O'zbekiston", 1999.
2. Ro'ziyev E., Ashirboyev A. Muhandislik grafikasining o'qitish metodikasi – Toshkent 2010.
3. Sharipov Sh., Zaripov L., Qodirov B. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash – Termiz.: 2021.
4. Rahmonov I., Yuldasheva D., Abdurahmonova M. Chizmachilik 9-sinf -T.: "O'zbekiston" 2019
5. Yodgorov J., Sobirov T., Yodgorov N. Geometrik va proyeksiyon chizmachilik -T.: "Yangi asr avlodi", 2008
6. Rahmonov I., Valiyev A. Chizmachilik. -T.: "Vorish-nashriyot", 2011.